ASTRONIMLARNING OBRAZLI NOMINATSIYASI

Qurbonova Gavxar Xurramovna - TerDPI O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi
e-mail: qurbonovagavhar1@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Obrazli tafakkur, obrazli ifoda, obrazli nominatsiya haqida so‘z boradi. Onomastik birlik hisoblangan astronimlarning nomlanishida ham obrazli tasavvur yetakchilik qilishi ifodalangan.

Kalit so‘zlar. Obraz, obrazlilik, mifonim va teonimlar, yulduz turkumlari, burj nomlari.

Til tafakkurning oliy shaklidir va tafakkur yozma, og‘zaki tarzda til qobig‘ida mavjuddir. Obrazli tafakkur ham til orqali voqealanadi va obrazli ifodaga aylanadi. Tilshunoslikning umumiy tizimida obrazlilik kategoriyasi har doim eng dolzarb va munozarali masalalardan biri bo‘lib kelgan.

Obrazlilik va obrazli ifoda nafaqat adabiyotshunoslik, psixologiya, estetika, san’at,ayni vaqtda tilshunislikning ham o‘rganish obyekti hisoblanadi, so‘zning obrazliligi – fikr yaratish va ma’no ifodalash vositasi ekan, astronimlarning nomlari ham bevosita obrazli tafakkur mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi.

Qadim sharqda kishilar yoritgichlarga qarab moljal olish uchun osmonning yorug‘ yulduzlarini alohida to‘dalarga ajratib, ularga yulduz turkumlari deb nom berganlar. Ularga odamlar shunchaki emas, balki muayyan xususiyatlariga asoslanib, ya’ni to‘planib turgan holatdagi ko‘rinishi, shakli, yorug‘ligi, qaysi paytda ko‘rinishi kabilarga asoslangan holda nom berishgan. Yulduz turkumlarini hayvonlar yoki jonivor (Katta Ayiq, Kichik ayiq, Chayon, Arslon, Ajdarho, Kit (bunday yulduzlar astronomiyada zodiak yulduzlar deb ataladi)), yunon afsonalarining qahramonlari (Kassiopiya, Andromeda, Pegas va boshqalar) va ba’zan yorug‘ yulduzlar birgalikda eslatadigan geometrik shakl yoki buyumlarning nomlari (Uchburchak, Tarozi, Cho‘mich) bilan ataganlar.

Xalq orasida osmonda yulduz uchsa, kimdir vafot etdi, degan ta’bir mavjud bo‘lgan. Chunki har bir kishining osmonda “o‘z yulduzi” bor bo‘lib, o‘sha yulduzning uchganligi uning egasi qazo qilganligini bildirgan [Jo‘rayev, Narziqulova, 2006: 37].

Inson tafakkuri jarayonida voqea-hodisalarning oddiy emas, balki obrazli tarzda lisoniy ifodalanishi aynan yulduz leksemasi uchun ham quyidagi obrazli tasvirlarning yuzaga chiqishi bilan natijalanadi: osmon qizlari, samo go‘zallari, kecha qizi, oltin qiz kabilar. Astronimlarni tasnif qilish anchayin mushkul vazifadir, sababi ayni bir tilda ifodalanuvchi astronimlar nomlanish usullari va tamoyillari jihatidan bir hil emas.

Dastlab biz **yulduz va yulduz turkumlarini** quyidagicha onomasiologik tasniflashga harakat qildik:

Qadimgi turkiy mifologiya bilan bog'liq bo'lgan va turkiy mifonimlar va teonimlardan transonimizatsiya (Bu hodisa rus tilshunosligida "трансонимизация – nomning bir turdan boshqa tur nomiga o'tishi", – deb ko'rsatilgan [Podolskaya, 1978: 152-153]; Transonimizatsiya tilda atoqli otlardan atoqli ot hosil qilishning alohida bir usuli bo'lib, bunday usulda yuzaga kelgan hosilalar apellyativ leksikadan yasalgan nomlardan ham, derivatsion usulda hosil qilingan nomlardan ham farq qiladi [Qilichev, 2023: 26]**) natijasida hosil bo'lgan nomlar** (*Yetti qaroqchi yulduz turkumi, Somon yo'li, Temir qoziq* kabi);

Hayvonlar, qushlar, hasharotlar nomlarini onimlashtirish orqali hosil qilingan astronimlar (*Qush yo'li, Ilon (yulduz turkumi), Qo'y (Hamal y. t.), Kaltakesak (y.t.), Kentavr (y.t.), Katta it (y.t), Katta ayiq, Kit(y.t.), Kichik it (y.t), Kichik asad (y.t.), Pegas (Qanotli ot. y.t.), Kichik ot (y.t.),* **Burgut,** *Savr (Ho'kiz. y.t.),* **va boshqalar**).

Yuqoridagi nomlanishlarning deyarli barchasi obrazli nominatsiya natijasidir.

BURJ *(ar.* برج – minora; qal'a; yulduzlar turkumi) – Quyoshning yillik ko'rinma harakati doirasidagi o'n ikkita yulduzlar turkumi; ularning har birini **nomlashda asosan hayvon nomlari yetakchi ekanini ko'ramiz.** *Turkiy xalqlarda oylarning nomi ham burj nomidan olingan (O'TIL, I, 378).*

Taqsirimning yulduzlari ***Qavs burji****ga kirdi. (*Uyg'un va I. Sulton. Alisher Navoiy) Zodiak yulduz turkumlari (zoo – "hayvon". Ular 12 ta)

1. Hamal. "Bu burjni qo'y shaklida tasavvur qilishganligi uchun *"Hamal"* yoki *"Qo'zi"* deb nomlashgan. Rus tilida *"Овец"*. Arablarda *"Kabsh"* deb ham yuritiladi. *"Kabsh"* esa qo'chqordir" [Rustamov, 1987: 90].

2. Savr. "Savr burjining surati buqa shaklida bo'lib, qadimgi turkiy tilda *"Uy"* yoki *"Ud"* ham deyishgan. Buning ma'nosi qoramoldir. Navoiy, Bobur kabi ijodkorlar ho'kiz, buqa, qoramol o'rnida *"Uy"* leksemasini ishlatganlar. Rus tilida Savrni *"Телец"* deb atashadi" [Rustamov, 1987:90].

3. Javzo. "Bu burjning suvrati egizak shaklida, lekin bu so'zning lug'aviy ma'nosi beli oq-qora qo'ydir. Bu kabi qo'ylar boshqa qo'ylar orasidan farqlanib turadi. *Javzo* yana *"Tav'amon"* deyilgan o'rinlari bor. *"Tav'amon"*ning ma'nosi egizak bo'lib, Y. X. Hojib bu burjni *"Erandiz"* tarzida keltirgan. Rus tilida *"Близнецы"* – egizaklardir" [Rustamov, 1987: 90].

4. Saraton. "Bu burj qisqichbaqa shakli bo'lib, uning qadimgi nomi *"Qo'chiq"*. Rus tilida esa *"Рак"*, ya'ni qisqichbaqadir" [Rustamov, 1987: 91].

5. Asad. "Asadning suvrati arslon ko'rinishida. Ruschasi *"Лев"* ham arslon deganidir. Y.X. Hojib ham bu burjni *"Arslon"* deb keltirgan" [Rustamov, 1987: 91].

6. Sunbula. "Sunbulaning suvrati qo'liga bug'doy boshog'ini ushlagan qiz ko'rinishida. Y.X. Hojibda bu burj *"Bug'doy boshog'i"* tarzida uchraydi. Rus tilida "*Дева"* deb nomlanib ma'nosi qizdir. Arab tilidagi *"Azro"* degan leksema ham Sumbulaga nisbatan qo'llaniladi. *"Azro"* so'zining ma'nosi ham qizdir" [Rustamov, 1987: 91].

7. Mezon. "Surati tarozi ko'rinishida. Rus tilida esa *"Весы"*, ya'ni tarozidir" [Rustamov, 1987: 91]. Y.X. Hojib bu burjni *"Ulgu"*, *"Erantiz"* deb atagan [Y.X.Hojib, 2007: 193].

8. Aqrab. "Surati chayon shaklida. Rus tilida *"Скорпион"* deb nomlanib, ma'nosi chayondir" [Rustamov, 1987: 91]. Y.X. Hojib ham bu burjni fonetik o'zgarishli variant bilan*"Chazan"* ya'ni chayon deb nomlagan [Y.X. Hojib, 2007: 192].

9. Qavs. Bu burjning suvrati qo'liga kamon ushlagan, belidan pasti ot shaklidagi odamdir. "*"Qavs"* ning ma'nosi yoydir. Yusuf xos Hojib ham bu burjni *"Yo"* deb atagan. Rus tilida *"Стрелец"* bo'lib, ma'nosi o'q otuvchidir. Arabchada *"Romiy"* degan so'z ham ishlatiladi. Bu ham otuvchidir" [Rustamov, 1987: 91].

10. Jadiy. "Bu burjning surati belidan quyi qismi baliq dumli shoxi bor echki ko'rinishidadar. Y.X.Hojib ham bu burjni *"O'g'laq"* ya'ni *uloq* deb atagan. Rus tilida esa *"Козерог"* deb nomlanib, echki ma'nosini beradi" [Rustamov, 1987: 91].

11. Dalv. "*"Dalv"* ning ma'nosi *qovg'a,* yani quduqdan suv chiqaradigan ko'n (teri)dan ishlangan meshdir. Suvrati qo'lidagi idishdan suv to'kib turgan odam shaklidadir. Yusuf Xos Hojib bu burjni *"Ko'nak"* degan. Rus tilida *"Водолей"*, ya'ni *suv to'kuvchi*dir" [Rustamov, 1987: 91].

12. Hut. "Katta baliqni, yoki kitni *"Hut"* deb aytishadi. Surati dumlari bir-biriga ip bilan o'ralgan baliqlar shaklidadir. Y.X.Hojib bu burjni *"Baliq"* degan. Rus tilida *"Рыбы"* (baliqlar) deganidir" [Rustamov, 1987: 91]. Shunday misralar uchraydi:

Quyosh qaytdi yana kelib o'rniga

Baliq *quyrug'idan* ***Qo'zi*** *burniga.*(Y.X.Hojib. Qutadg'u bilig)

"Quyosh kecha va kunduzning tenglik nuqtasi, ya'ni olam ekvatoriga keldi va Baliq, ya'ni Hut burjidan Qo'zi – Hamal yulduz turkumiga tomon o'tdi" [Narziqulova, 1991: 31-32].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, astronoik nomlarning har biri, ma'lum bir xalqning obrazli tafakkuri natijasida yuzaga kelganligi yuqoridagi tahlillardan anglashiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jo'raev M, Narziqulova M. Mif, folklor va adabiyot. Toshkent, 2006.

2. Нарзиқулов А. Деҳқон, боғбон ва чорвадор тақвими. – Тошкент, 1991.

3. Подолская Н.В. Словарь русской ономастической терминолоғии. – Москва, 1978.

4. Qilichev B. Onomastika. Buxoro, 2023.

5. Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Тошкент: Ёш Гвардия, 1987.

6. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig (To'xliyev B. tabdili asosida). – Toshkent: Cho'lpon, 2007.